

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Radjabova

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar 322

D.D.J.NizomitdinovXV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning
harbiy yurushlari talqini 325**Қ.А.Пулатов**Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в
социальных взглядах джадидов: научный анализ 329

ADABIYOTSHUNOSLIK

R.A.Ortiqov

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir 336

I.M.Jo'rayev

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini 341

O.Z.DadajonovMaqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida
olimlik motivi 350**S.A.Olimjonov**

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari 354

A.A.Qosimov

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis 360

A.A.Qosimov

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels 366

Д.Ш.Ибрагимова

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте 370

M.N.Abduolimova

Lexical-structural features of mythonyms 376

N.Qurbanov

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels 380

S.O'.Shermamatova

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson 383

N.I.Tairova

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlari doir 386

S.S.Usmanova

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida 390

A.O'.Abdullayev

Ramz belgining maxsus turi sifatida 395

K.A.Toipvoldiyev

Реальный восток М.Ю.Лермонтова 401

А.А.Касимов, Р.Н.ДжагаспанинПроблема народного героя в литературе как отражение национального
самосознания 406**Р.Н.Джагаспанин**

Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе

В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю" 412

А.Р.Косимов

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины») 422

О.А.Акбаров

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе 427

Э.Ф.ГиздулинИсторическое развитие постапокалиптических мотивов в
художественной литературе 431



**ERIX MARIYA REMARK VA ULUG'BEK HAMDAM ASARLARIDA BADIYAT
MUAMMOLARI**

**ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ЭРИХА МАРИИ РЕМАРКА И
УЛУГБЕКА ХАМДАМА**

**ARTISTIC PROBLEMS IN THE WORKS OF ERICH MARIA REMARK AND ULUGBEK
HAMDAM**

Olimjonov Sarvarbek Abdusalom o'g'li 
Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Erix Mariya Remarkning "Uch og'ayni" va Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanlarida mualliflar uslubiga xos jihatlar tahsil etish orqali badiiy mahorat va uslubi, poetik fikrashi, hayotni ifodalash shakli, uyg'unligi, ma'naviy-ruhiy holati, o'ziga xosligi va ikki ijodkorlarga ijtimoiy muhit va ijodkor shaxsi, davr va qahramon muammolari, ijodiy ta'sir va an'ana, badiiy talqin va ifoda masalalarining aks etishi, urush va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning ta'siri kabi muammolarni yoritilgan. Turli xil manzaralar yaratishda tasviriy vositalardan foydalanishdagi yozuvchilar mahorati ko'ssatib berilgan. E.M.Remark yaratgan asarlarda so'zlar, portret, peyzaj, badiiy tafsil va bo'yoglar kabi ifoda usullari keng qo'llaniladi. Shunigdek, tabiat tasviri, undagi o'zgarishlarni asar mazmuni bilan uyg'unligi ta'minlash, g'oyaviy ta'sirchanlik, talqin haqqoniyligi yaqqol sezilib turadi. Ulug'bek Hamdam ijodida esa tasviriy vositalardan o'xshatishlar orgali qahramonlar holati, ichki dunyosi, kechinmalari, tabiat tasviridagi ta'sirchanlikni ta'minlash, detallardan o'z o'rniда, samarali foydalanish uslubi yetakchilik qilgan. Birinchi jahon urushining insoniyat boshiga solgan kulfatlari hamda o'tish davri silsilalarida qahramonlar botinidagi evriliishlar realistik uslubda yoritib berilganligi o'rganilgan.

Аннотация

В статье в романах Эриха Марии Ремарка "Три товарища" и Улугбека Хамдама "Равновесие" раскрываются художественное мастерство и стиль авторов, поэтическое мышление, форма выражения жизни, гармония, духовно-духовное состояние, "неповторимость" и отражение социальной среды и личности творца, проблем эпохи и героя, творческого влияния и традиции, проблем художественной интерпретации и выражения для двух творцов, освещены такие проблемы, как влияние войны и социально-политические изменения. Показано мастерство писателей в использовании изобразительных средств для создания различных сцен. В произведениях, созданных Э.М.Ремарком, широко используются такие выразительные средства, как слово, портреты, пейзажи, художественные детали и краски. Кроме того, отчетливо заметен образ природы, созвучность изменений в нем содержанию произведения, идеиность, правдивость интерпретации.

В творчестве Улугбека Хамдама преобладал метод эффективного использования деталей, обеспечения состояния героев, их внутреннего мира, переживаний, впечатления от природы посредством сравнений. Исследовано, что тяготы Первой мировой войны для человечества и изменения героеv сериалов переходного периода освещены реалистично.

Anotation

In the article, in the novels "Three Comrades" by Erich Maria Remarque and "Balance" by Ulug'bek Hamdam, the authors' artistic skill and style, poetic thinking, form of expressing life, harmony, spiritual state, "uniqueness" and reflection of social environment and personality of the creator, problems of the era and hero, creative influence and tradition, artistic interpretation and expression issues to the two creators, problems such as the impact of war and socio-political changes are highlighted. The skill of the writers in using pictorial means to create different scenes is shown. In the works created by E.M.Remarque, expressive methods such as words, portraits, landscapes, artistic details and paints are widely used. In addition, the image of nature, the harmony of changes in it with the content of the work, ideological effectiveness, truthfulness of interpretation are clearly noticeable.

Ulugbek Hamdam's creativity was dominated by the method of effective use of details, ensuring the state of the characters, their inner world, experiences, and the impression of nature through similes. It has been studied that the hardships of the First World War on humanity and the changes in the characters in the series of the transitional period are illuminated in a realistic manner.

Kalit so'z va iboralar: uslub, individual uslub, mahorat, roman, roviy-qahramon, portret, peyzaj, kartina, tasviriy vosita.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ключевые слова и фразы: стиль, индивидуальный стиль, мастерство, роман, герой-рассказчик, портрет, пейзаж, картина, изобразительное средство.

Key words and phrases: style, individual style, skill, novel, narrator-hero, portrait, landscape, picture, visual medium.

KIRISH

O'zbek adabiyotshunoslida XX-XXI asr adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan o'zbek adiblari ijodi jahon adabiyoti namoyandalari asarlari bilan uyg'un va farqli tomonlari qiyosan tadqiq etilib, uslub va qahramon yaratish, badiiyat va mahorat borasidagi o'ziga xos jihatlar yetarlicha yoritilmagan. XX asr nemis adabiyotida betakror asarlari bilan muhim o'rinn egallagan Erix Mariya Remark va o'zbek nasrida o'ziga xos ifoda yo'sini, uslubi bilan ajralib turuvchi yorqin iste'dod sohibi Ulug'bek Hamdam romanlarini qiyoslash orqali badiiy mahorat va uslub, uyg'unlik va o'ziga xoslik kabi muammolarni yoritish dolzarb hamda o'rganilishi zarur masalalardandir. Shu bois, har ikki ijodkor romanlarida ijtimoiy muhit va ijodkor shaxsi, davr va qahramon muammolari, ijodiy ta'sir va an'ana, badiiy talqin va ifoda masalalarining aks etishi, urush va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar oqibatida avlodlar ruhiyatidagi silsila va bo'hronlarning badiiy tasvirini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj mavzuning zaruratini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asar badiiyati yozuvchi uslubi bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyotshunos T.Boboyev yozganidek "Uslub – adabiy asar (mazmuniga monand bo'lgan shakl)dagi obratzli ekspressiv detallarning estetik birligi, badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishida namoyon bo'ladigan yozuvchining o'ziga xosligi, o'zligi... Ammo uslub asardagi badiiy tasvir vositalarining quruq arifmetik yig'indisi emas, balki ularning yaxlit bir sistemaga uyushuvi, g'oyani ifodalashga, qahramon xarakterini ochishga xizmat qilishida yozuvchi qo'llagan usuldir. Individual uslub – yozuvchining poetik fikrlashi va hayotni ifodalashda seziladigan xususiyatlarni majmui"[1, 242]. Professor U.To'ychiyev fikricha " uslub badiiylikning qonuniyatlaridan biridir. U milliy adabiyotni rivojlantiruvchi omillardandir, adabiy jarayon bilan ham mahkam aloqada tarkib topadi. Yozuvchi o'z uslubiga ega bo'lsa, u har bir asarda o'z yangi bir qirrasini ko'rsataveradi va mo'jiza yarataveradi"[6, 370]. Uslub har qanday badiiy asar yaratishni istagan muallif ega bo'lishi shart bo'lgan o'ta muhim unsurdir. Y.Solijonov ta'kidlaganidek "Mabodo avtor o'z uslubiga ega bo'lmasa, uning yozuvchiligi to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. Agar uning o'z tili, uslubi shakllangan bo'lsagina yozuvchiliga umid bog'lash mumkin. ... asarning nutq tuzilishida badiiy uslubning barcha fazilat hamda xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi"[5, 8]. Erix Remark va Ulug'bek Hamdam asarlaridagi uslub va badiiyat masalalarini tadqiq etar ekanmiz yuqorida qayd etilgan jihatlar ular uchun ham xos ekanligini ko'ramiz. Shuni ham unutmaslik kerakki, "... chinakam badiiy asar betakror, original hodisadir. Unda san'atkoring ijod onlaridagi ma'naviy-ruhiy holati, shu onlarda ayon bo'lgan ma'no akslanadi. Ijod onlaridagi ma'naviy-ruhiy holat betakror bo'lganidek, o'sha ma'no ham betakordirki, u endi faqat o'qish jarayonida – qayta yaratish jarayonida voqe bo'ladi"[7, 57].

NATIJA VA MUHOKAMA

E.M.Remark romanlari badiiy yuksakligi va ta'sirchanligini ta'minlagan muhim jihat tasvirda muallifning sovuqqon munosabatidir. U vogelikni bo'rttirib, mayda tafsillariga turli bo'yoqlar berib aks ettirishdan yiroq turadi. Shu bilan yozuvchi tasvirdagi badiiy vogelikni real hayotga yaqinlashtiradi. Uni aynan o'zidek tasvirlaydi. Natijada badiiy haqiqat yuzaga keladi. E.M.Remark yaratgan asarlarning uslubi ham ma'lum darajada qahramonlar ichki olamining tahlili bilan bevosita bog'liq. Yozuvchi qaysi qahramoni haqida so'z yuritmasin, ushbu obrazga xos, o'zi uchun muhim hisoblangan xususiyatlarni aks ettirishni maqsad qiladi hamda shunga mos so'zlar, portret, peyzaj, badiiy tafsil va bo'yoqlar kabi ifoda usullarini qo'llaydi.

E.M.Remark "Uch og'ayni" romanida Germaniyaning urushdan keyingi og'ir holatini turli personajlar taqdiri orqali tasvirlashga erishadi. Ma'lumki, davlatlarning ikki koalitsiyasi: Markaziy davlatlar (Germaniya, Avstriya-Vengriya, Turkiya, Bolgariya) va Antanta (Rossiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Serbiya, keyinchalik Yaponiya, Italiya, Ruminiya, AQSH va b. jami 34 ta davlat) o'rtasidagi urush 1914-yil 15-(28)iyulda boshlangan. Avstriya-Vengriya Sarayevodagi qotillikni bahona qilib Germaniyaning to'g'ridan-to'g'ri tazyiqi ostida Serbiyaga urush e'lon qiladi. To'rt yil

davom etgan bu qirg'inbarot urush Germaniya aholisining o'zi og'ir bo'lgan turmush darajasini yanada og'irlashtiradi. Urush qatnashchilari – harbiylarni ishsizlik girdobiga tashlaydi.

Robert – asar bosh qahramoni frau Zalevskining pansionatida ijara da turadi. U "Internatsional" qahvaxonasida sozanda hamda ko'chada kirakashlik bilan shug'ullanadi. Yozuvchi pansionat joylashgan manzarani shunday tasvirlaydi: "Bu yerda har doim biror voqeа sodir bo'lib turadi, sababi – kasaba uyushmasining binosi, "Internatsional" qahvaxonasi va Qutqarish Armiyasining to'planish punkti yonma-yon joylashgan. Buning ustiga, uyimiz ro'parasida ko'hna qabriston bor, ko'pdan buyon bu yerga marhumlar dafn qilinmaydi. Qabriston xuddi istirohat bog'iday, serdaraxt – sokin kechalarda o'zingni shahar tashqarisida yashayotganday his etasan. Ammo sukunat ancha kech boshlanadi, chunki qabriston yonida har turli charxpalak va arg'imchoqlar o'matilgan saylghoh bor" [4, 22-23]. Ushbu tasvirda yozuvchi qayg'u bilan shodlik doim bir-biriga hamroh ekanini saylghoh va qabristonni yonma-yon aks ettirish orqali izohlaydi.

Ayniqsa, yozuvchi kartina yaratishning ustasi. Tungi shahar manzarasini o'zaro kontrast qo'yish orqali tasvirlab ta'sirchanlikka erishadi. Charog'on, devorlariga ko'zni qamashtiradigan yorliqlar qoqilgan, lekin, shu bilan birga huvillagan ko'chalar, birida qo'g'irchoqlar terilgan, boshqasida qimmatbaho zeb-ziynatlar osilgan vitrinalar, ularning ichida behuda yonib turgan chiroqlar, vitrinalariga turli qimmatbaho shohi matolar qator qilib yoyilgan ko'zni qamashtiruvchi do'konlar, kinoteatr, rastalarida xilma-xil qadoqlangan maxsulotlar, oppoq paxtalarga o'ralgan sarxil mevalar, turli-tuman go'sht va go'sht maxsulotlari, turli shakldagi bo'rsildoq nonlar terilgan savdo markazlari va ularning ro'parasida go'yo tiz cho'kib o'tirgan och-nahor odamlar holati tasvirning yanada jonli, ta'sirli bo'lismiga xizmat qiladi. Yuqoridagi tasvir orqali urush tufayli jamiyatdagi tabaqalanish nechog'lik ortganini yozuvchi o'ziga xos ifodalaydi.

Erix Mariya Remark romanda saylghohning turli qiyofalarga to'la manzarasini yaratish orqali tasvir haqqoniyligini yuzaga keltiradi. Yozuvchi qahramon nigohi orqali saylghoha doim bir xil dilgir kuy chaladigan sharmankachilar, sandiqni eslatuvchi bu musiqa asboblarning uvadasi chiqib ketgan g'iloflari ustida o'tirgan to'tiqushlar yoki kichkina maymunlar, jag'i tinmay turli buyumlar, mayda-chuydalar, esdalik sovg'alar, suvenirlar, har xil matolar sotayotgan savdogarlar, shirinlik do'konchalar, duradgor ustalar, folbinlar, turli-tuman ko'ngilochar anjomlar o'matilgan chodirlar, arg'imchoqlar hamda chiroqlari ko'zni qamashtiruvchi, jarangdor musiqa sadolari ostida aylanayotgan charxpalak kabilarni mahorat bilan aks ettiradi. Yoki, professor Jaffe Robertga Patritsiyaning kasali og'ir ekanini tushuntirayotganida shunday suhbat ro'y beradi:

"—Xayolga berilganim yo'q. Lekin qanday ko'rgilik bu! Millionlab odamlar soppa-sog' yuritiku! Kelib-kelib Pat kasal bo'ladimi?

Jaffe andak sukut saqlab turdi.

—Bu savolningizga hech kim javob berolmaydi, — dedi u nihoyat.

—Ha! — xitob qildim birdan jazavam tutib. — Hech kim javob berolmaydi! Hech kim! O'lim va azoblar uchun hech kim javob bermaydi! Qanday dahshat!" [4, 310]. Shunda Jaffe Robertni ham kechki ko'rikka "bemorlar uchun mening yordamchim bo'lasiz" deya birga olib kirib ketadi. Kasalxonadagi kasallarning holatini yozuvchi bor "shafqatsiz" realizmi bilan tasvirlab beradi. Dastlab o'n ikki yildan beri falaj holatagini yuzi zafaron bo'lib ketgan, soqollari siyrak lekin qop-qora, kirtaygan ko'zları butunlay xotirjam bemorni ko'radilar. Uning odeyali ustida donalarining o'zagi temirdan, taxtasi charmidan bo'lgan shahmat hamda bir dasta gazeta va kitoblarni ko'radilar. Professor Jaffe bemordan hol-ahvoli haqida so'raganida bemor allaqanday mavhum ishora qiladi va deraza tomon ishora qiladi:

"— Osmonga qarang! Yomg'ir yog'adi, sezib turibman. — U jilmaydi. — Yomg'ir paytida yaxshi ugraydi odam" [4, 313]. Yozuvchi o'rinli topilgan tafsillar orqali rang-barang xarakterlar yaratadi. Badiiy tafsil (detal)ning asarda voqelikning to'laqonli va aniq tushunib, his etiladigan darajada jonli tasvirlanishida xizmati beqiyos. Jaffe kasalxonadagi bemorlarni birma-bir ko'rsatish orqali Robertga Patritsiyadan ham og'ir bemorlar borligini bildirmoqchi bo'ladidi. Har bir xonaga kirib chiqisharkan Robert avval uchratmagan dahshatlari manzaralarga duch keladi. U bemorlar orasida tug'ruq payti azoblanib, ko'zları vahimaga to'lgan yoshgina juvon, oyoqlari ko'karib, cho'pday bo'lib qolgan qorni esa shishib ketgan bola, oshqozonining bir qismi operatsiya qilinib, kesib tashlangan erkak, yaqinlari xabar olmay qo'ygan, o'limini kutayotgan qariya onaxon, ancha vaqt oldin ko'rmay qolgan, lekin haliyam ko'zlarining ochilishidan umidini uzmagan ayol, zaxm toshmasi toshib yuzlari

ADABIYOTSHUNOSLIK

xunuklashib ketgan bola bilan yonida o'tirgan otasi, saraton tufayli ikkala ko'kragi ham kesib tashlangan ayol, yiqilib buyraklarini shikastlagan ishchi kabi ahvoli bir-biridan og'ir odamlarga ro'para bo'ladi. Yozuvchi ana shu tariqa turli xil qiyofalarni izchillik bilan tasvirlash orqali kasalxonaning yaxlit kartinasini yuzaga keltiradi. Tasvir davomida barcha voqealarga befarq, o'z qonuni bilan abadiyligini namoyon etayotgan tabiat tasviri paydo bo'ladi. Bu Robertda o'zgacha kechinma va holatni yuzaga keltiradi: *"Har gal yo'lakka chiqqanimizda bizni yana o'sha shafaq yog'dusi, mayin tillarang bulut qarshi olardi. Bir narsaga tushunolmasdim: nima bu – tabiatning beshafqat masxarasimi yoki inson irodasidan kuchliroq, aql bovar qilmaydigan tasallimi? Jaffe jarrohlik xonasi oldida to'xtadi. Eshikning xira oynasidan yorug' tushib turardi. Ikki hamshira pastak aravachani g'ildiratib o'tishdi. Unda ayol kishi yotardi. Nigohini ilg'adim. U menga qaragani ham yo'q. Ammo bu ko'zlarda shu qadar jur'at, shaylik va xotirjamlik mujassam ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi"*[4, 313-314]. Yozuvchi ana shu tariqa insondagi iroda kuchining beqiyosligini tasvirlaydi. Insonning jismonan o'limga yuz burganda ham nomini abadiylashtiradigan kuch uning irodasidir. Shu bois muallif inson o'limni ham munosib, mardona kutib olishi kerak demoqchi bo'ladi.

Romanda yozuvchi qarama-qarshi holatlar Budapesht bog'larining biridagi restoranning sarxush holati bilan sanatoriyyada azob chekayotgan Patritsiya kechinmalarini solishtirish orqali falsafiy fikrni ifodalashga erishadi. Bunda priyomnikdan taralgan lo'licha kuy muhim o'rinn tutadi. Bu kuy Budapeshtdag'i bog'larning birida joylashgan restoranda bo'layotgan kechki konsernning musiqa sadolari edi, orada elas-elas stol atrofidagi mehmonlarning gap-so'zları, hayqiriq va xitoblari eshitilib turadi. Xuddiki u tomondagi orolda kashtan daraxtlari endigina yozayotgan mitti barglari oyning nurida yaltirab, skripkaning dilgir ohangiga mos ravishda tebranayotgandek tuyiladi.

Erix Mariya Remark romani sarlavhasidan kelib chiqadigan bo'lsak, uch frontdosh do'stlarning taqdirini tasvirlash orqali yo'qotilgan avlodning fojiasini, shu orqali urush dahshatini ko'rsatishni maqsad qilgan. Lekin urush nafaqat jangchilarni, balki front ortidagi aholini ham halokatga giriftor etganini, to'rtinchı qahramon Patritsiya misolida ko'rsatib beradi yozuvchi. Tasvir izchilligi orqali yaratilgan kartinalar muayyan g'oyaviy ta'sirchanlik, talqin haqqoniyligini yuzaga chiqaradi.

Ma'lumki, asar badiiyatiga xos jihatlarni yozuvchi uslubisiz tasavvur etish qiyin. Professor U.Normatov yozuvchi Shukur Xolmirzayev bilan bo'lgan suhbatida adib betakror uslubining shakllanishida Surxon koloriti muhim o'r'in tutganligini, ijodkor asarlarida nafaqat mahalliy urfodatlar yoki geografik muhit, balki mazkur hududda yashovchi insonlarining o'zlariga xos gapiresh tarzi, so'zlashish ohangi, ya'nı surxon daryoliklarning fikri dangal, ortiqcha bo'yoqlarsiz to'g'ridan-to'g'ri aylib qo'ya qolish xususiyatlari sezilib turishini ta'kidlar ekan: *"Shu xususiyat hayratda qolar darajada sizning uslubingizga ko'chgan. Bir vaqtlar ayrim o'rtoqlar sizning uslubingizda g'arbning ta'sirini qidirgan edilar, ehtimol, bunda ham qisman asos bordir, lekin men bu uslubning asosiy zamini mahalliy koloritda deb bilaman"*[3, 354] deya mulohaza qiladi. Olimning yuqorida so'zlarini Ulug'bek Hamdamning andijonliklar tabiatiga xos fikri bor-bo'yicha, lo'nda bayon etish uslubiga ham to'la tatbiq etish mumkin. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanida tasviri vositalardan o'xshatishlar orqali qahramonlar holati, ichki dunyosi, kechinmalari, tabiat tasviridagi ta'sirchanlikni ta'minlash uslubi yetakchilik qilgani ko'rinadi. Masalan, bir vaqtlar katta lavozimlarda ishlagan, so'ng qamalib chetga surib qo'yilgan Muhammadjon aka o'limi oldidan o'ziga tegishli mulk-joylarni barcha yaqinlarini yig'ib taqsimlab bera boshlaydi.

Muhammadjon aka shahardagi "dom"ini Yusufga bermoqchi bo'ladi. Shunda bu ishga qaynog'asi Norqul qarshilik qiladi. Xatto bu masalada u jiyani Asqar bilan tortisha boshlaydi. Bu holat romanda shunday tasvirlanadi:

" – Og'zingga qarab gapir, Norqull!.. – Endi Muhammadjon aka o'zini bosib turolmadi. – Mening bolalarimga ovozingni ko'tarma! O'chir! – u qo'lini musht qilib shunday dag'dag'a qildiki, o'midan turib og'zidan tupugi sachrab akillay boshlagan Norqul akaning tizzasiga qaltiroq kirib, qanday bukilganini va va joyiga chirib tushgan olmaday "po'killab" tushganini bilmay ham qoldi"[8, 27]. Norqul akaning holati bilan bog'liq qo'llangan o'xshatishlar Muhammadjon akaning nechog'lik qudratga egaligini ham asoslashga xizmat qiladi. Adib bu holatni romanda Muhammadjon akaning dag'dag'asidan so'ng davraning go'yo suv quygandek jim bo'lib qolgan, qamalib chiqqanligi sabab obro'sizlangan, rahbarligidan tushgan, qarib qolgan esada haliyam sherdek shashti ketmagan

Muhammadjon akani qari arslonga va sal oldin osmonga sapchib, so'ng bir zumda popugi pasayib qolgan Norqul akani esa suvga tushgan mushukka o'xshatish orqali ta'sirchan ifoda etadi. Norqulning so'z qotishini "akkillay boshladi" iborasi, "chirib tushgan olmaday" o'xshatishi bilan tasvirlash orqali muallif ham o'zining unga bo'lgan salbiy munosabatini ifodalashga erishadi. Uning ayanchli qiyofasi yaratiladi.

Yozuvchi badiiy tafsillardan foydalanib istiqlolning dastlabki yillardagi qishloq aholisining nochor, og'ir hayotini haqqoniy, jonli va ta'sirchan ifodalashga erishadi. Masalan, Yusuf qishloqda bolalikdagi do'sti Sodiqni loy qorib turganining ustidan chiqadi. Ular hol-ahvol so'rashgach, kechga yaqin ko'rishishga shartlashib xayrlashisharkan Yusuf nariroqda kutayotgan ayoli va o'g'liga yetmasidan Sodiq tirkak qo'yemoqchi bo'lgan devor qulab tushadi. Tasvirdagi qulab tushgan devor tafsili qishloq kishilarining qashshoqlikdagi og'ir hayoti haqida haqqoniy tasvirni yuzaga keltirgan. Yoki Yusuf yo'lda yana davom etib, o'z uylariga kirib borarkan, hovlida tok ko'tarayotgan dadasi Odil aka va ukalariga ko'zi tushadi: "*Yusuf ularning oldilariga yetar-yetmas tanasi qayrilayotgan tok qarsillab yorildi.*

— Uh-uh-h, — Odil aka tananing yorilgan joyiga tashvish bilan boqdi, lekin o'g'llariga dalda berdi, — ehtirot qilib qayiraveringlar!"[8, 53]

Ma'lum bo'lishicha boy qo'shnining dang'llama imorati natijasida Odil akaning boshqa daraxtlari qatori ushbu tok ham o'smayapti. Uni oftob tomonga olib chiqishni maqsad qilganlar. Sobiq rais buvaning ko'p qavatlari bilan uyi sharofati bilan tokning baquvvat tanasi yoriladi. Bu bilan yozuvchi go'yo imperialistik davlatlar yetovidan chiqishga urinayotgan davlatlarga qiyin bo'lishini yashirin ifoda bilan tasvirlayotgandek bo'ladi. Ushbu o'rinda kambag'allik orqasidan yuzaga kelgan siniqlikni Odil akaning o'g'liga hiyol qizarib, qimtinib, buning ustiga "sizlab" gapirishida yozuvchi mahorat bilan ko'rsatadi. Sharqona odat va odob milliy qiyofani yuzaga chiqaradi. Kamtarinlik va xokisorlikning yuksak ko'rinishini Odil akaning o'z o'g'liga munosabatida aks ettiradi. Romanda Yusufning kechinmalari qisqa, lo'nda ifodalarda aks etadi: "*Yusuf bundan mutaassir bo'ldi. U otasida ilk bor odamzodga xos ojizlikni, siniqlikni ko'rayotgandi. Ko'ngli allanechuk bo'lib, tomoniga nimadir tiqildi..*"[8, 54] Shu orada "go'sht o'rniqa kartoshka bosilgan qaynoq palov" tafsili ham nochor, kambag'al oila hayotini o'ziga xos aks ettiradi. Yozuvchi sharqona qishloq manzaralarini milliy bo'yoqlarda ko'rsatib beradi. Ayniqsa, o'zbek xonadoni manzaralarida "isiriq hidi guppillab turgan xona" tafsildan samarali foydalanadi. Ushbu o'rinda professor B.Karimovning "Psixologik talqinda qahramon ruhiyatini asoslash, voqelikka ishontirishda detallar muhim sanaladi"[2, 61] degan so'zlari yodimiziga keladi.

Yusufning akasi uyiga kirib borganidagi tasvirda yozuvchi o'xshatishlardan foydalanib hayotiy, jonli manzara, kartinani yaratadi: "*Hovlining etagida it vovulladi. Keyin birin-ketin Mohira va Nodiralar chopqillab chiqishdi. Yusuf tiz cho'kib, quchog'ini ochdi. Bolalar xuddi polaponlardek uchib kelib, Yusufning bag'riga singib ketishdi*"[8, 71]. Yoki, Yusufning do'sti Sodiq tomonidan berilgan keskin so'rovlardan keyingi holat talqinida ham o'xshatishlar vositasidagi jondantirishning o'rnini kattadir. Mustaqillikning dastlabki yillarda jamiyatdagi muammolarning ko'pligi, ularning yechimi qayerda ekani noma'lumligi Yusuf ko'zlarini orgali suvga tushib uzoqlarga oqib ketayotgan Sodiq dardlari tasvirida aks etadi.

Romanda qahramonlar nutqi vositasida ular qiyofasiga xos jihatlar aks ettirilgan. Zahro qiyofasiga xos dimog'dorlik, kattazanglik uning telefondag'i suhbatida ayon bo'ladi: " — Allo, Marfua, qalaysan? Bormisanla? Ertalabdan biri telefon qilaman, omiysila? Hm... Allo, bugun ering bilan kellaring. Ho'jaynim "Den rojdeniya"lari bilan mashinasini yuvvotdila. Yengisini. Ha, oldila. Mers. Olti yuz. Hammaligini etdim. Bitta sila qoluvdila. Xo'p, poka..."[8, 111] Yozuvchi shevaga xos so'zlarga ruscha so'zlarni qorishtirish orqali personajlar nutqining hayotiy, jonli talqinini yaratadi. Bu Zahro xarakteriga xos qaysidir jihatlarni aks ettirayotgandek bo'ladi. Yoki, shaharni uzoq vaqt kezib, nihoyat qishlog'iga qaytgan Yusufning qazo qilgan yagona farzandi Muhammadjonning qabrini izlab kezish holati va qabriston qorovulining o'zi uchun aziz bo'lib qolgan qabrlarga bo'lgan munosabati o'xshatishlar vositasida yoritiladi. Qabrlar orasidan farzandiga tegishlisini qidirar ekan Yusuf dam unisi, dam bunisining tepasida to'xtab turadi va ko'ngli joyiga tushmay nari ketadi, topa olmagani sayin esa sog'inchi ortib yuragini o'rtaydi. Uning bu ruhiy holati go'yo shu lahzada agar qabr topilib qolsa, uni qo'llari bilan qazib olib, farzandining jasadini mahkam quchoqlab olishdan ham toymaydigandek aks ettiriladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Jamiyatdagi tuzumning o'zgarishi Erix Mariya Remark qahramonlarini orzu-havaslarini qurbon qilish, faqat bugungi kun bilangina yashashga olib kelgan. Ulug'bek Hamdamning bosh qahramonlari orasida ham Muhammadjon aka kabi o'zining milliy tarixi ta'sirida shakllangan idealining qurboni, Amir misolida esa e'tiqodda chuqurlishib ketish oqibatida yo'ldan adashish, orzu-intilishlarini yo'qotishga mahkum odamlarlar borligi, hatto, Yusuf ham ko'p vaqt ikkilanib yashashida jamiyatdagi yetakchi tamoyillar o'zgarganligining oqibatlarini kuzatish mumkin. Bu ularning ijodini o'zaro yaqinlashtiradi. Ikki yozuvchining qator farqli jihatlari qatorida yozuvchilarning individual uslubi ham badiiy tahlilga tortilgan muammolarni o'ziga xos ifodalashga xizmat qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, E.M.Remark va U.Hamdam romanlari badiiyatini mukammallashtirish borasida muttasil izlanishlar olib bordilar va katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. E.M.Remark urushning dahshatli manzaralari, lahzalik holatlari tasviri orgali muayyan g'oyani ifodalasa, U.Hamdam turli tasviriy vositalar, badiiy tafsillar orgali betakror xarakter va qiyofalar vositasida o'tish davridagi jamiyat holatini haqqoniy aks ettirishga erishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Remark E.M. Uch og'ayni. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. – 512 b.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослика кириш курси бўйича ўқув-методик кўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 288 б.
3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 88 б.
4. Норматов У. Танланган асарлар. – Тошкент: "SHARQ" нашиёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2021. – 592 б.
5. Солижонов И. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002. – 512 б.
6. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 512 б.
7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 400 б.
8. Ҳамдам У. Мувозанат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 336 б.